

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA O'QUVCHI-YOSHLARGA JISMONIY TARBIYANING UMUMIY TUSHUNCHALARINI O'RGATISH MASALALARI

*Ne'matova Dilnoza Zafarjon qizi
ChDPU 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchi-yoshlarga jismoniy tarbiyaning umumiy tushunchalarini o'rgatishning klaster yondashuvi hamda ushbu tizimning ta'lif sohasida tutgan o'rni va ahamiyati xususida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Klaster, jismoniy tarbiya, ta'lif tizimi, integratsiya, fan, ishlab chiqarish, kompetensiya, pedagog, kadr, sport, tendensiya, raqobat.

Jamiyatda yuz berayotgan tub o'zgarishlar, shubxasiz, ta'lif sohasini ham qamrab olmoqda. Milliy ta'lif tizimining keyingi chorak asrdagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilganiga guvoh bo'lamic. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev keyingi yillarda ta'lif sohasini isloh qilish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirish, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e'tibor qarata boshladi. Bu boradagi islohotlar 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 22-maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 8-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident qarorlarida o'tgan yillarda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish mas'uliyati o'z aksini topdi.

Jahon amaliyotida ta'lifning barcha turlari va bosqichlarida samaradorlikni oshirish va takomillashtirishning yangi mexanizmi sifatida qaralayotgan klaster modelini yanada rivojlantirish natijasida ta'lif paradigmalarining yangi imkoniyatlarini topish, subyektlarning manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish orqali ularning istiqbol natijalarini kafolatlash, shaxsning sifatli ta'lif olishiga xizmat qiluvchi yangicha yondashuv va usullarni ishlab chiqish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Uzluksiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish maqsadida "Ta'lif mazmuni va sifatini oshirish, raqobatdosh, yuqori bilim va ko'nikmalarga ega oliy ma'lumotli pedagoglar tayyorlashda samarador bo'lgan pedagogik ta'lif innovatsion klasterni joriy qilish "^[1] kabi masalalar yanada takomillashtirilib borilmoqda. Respublikamizda fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasiga mos ravishda umumiy o'rta ta'lif muassasalarida o'quvchi shaxsining kompetensiyaviy imkoniyatlarini kasbga yo'naltirish orqali yanada takomillashtirish, kompetentli kadrlarning innovatsion

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

faoliyati asosida “ bilim fanga , fan ishlab chiqarishga” tamoyilini amalga oshirishda integratsion yondashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurati kuchaymoqda.

So’ngi yillarda ta’lim klasteri g’oyasiga nafaqat ilmiy, balki nazariy jihatdan ham qiziqishlar ortib bormoqda, shu bilan birga uni amaliyatga tadbiq etishga bo’lgan urinishlar ham amalga oshirilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagagi qarori bilan Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti tashkil qilingan edi. Qaror bilan universitetga Toshkent viloyatidagi maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta’lim masalalarining tarbiyachilar, boshlang’ich sinf o’qituvchilari, ayniqsa fanlar va chet tillari bo’yicha o’qituvchilarga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloqlar joylaridagi ta’lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash hamda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli pedagog kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatilgandi.^[3] Universitet amaliy tajribalarida bu sa’yi-harakatlar allaqachon boshlangan bo’lib, hozirda o’z natijasini ko’rsatmoqda.

“Klaster” atamasi fransuzcha so’z bo’lib, o’zbekcha tarjimasi “bog’lam”, “guruh”, “to’planish” ma’nolarini beradi. ”Klaster” nazariyasining asosi bo’lib Alfred Marshalning XIX asr oxirida yozilgan “Iqtisodiyot prinsplari” nomli asarida (1890) ixtisoslashgan tarmoq sohalarining alohida hududlarda uyg’unlashishi to’g’risidagi fikr-mulohazalari hisoblanadi. Ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan bu metod puxta o’ylangan strategiya bo’lib undan o’quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh assosida tashkil etiladigan mashg’ulotlar jarayonida foydalanish samarali natijalarni keltirib chiqaradi.

Ta’limda bunday yondashuvni qo’llash amaliyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasida mavjud. Bu borada Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Indoneziya, Malaziya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari kabi dunyoning yetakchi mamlakatlarida katta tajriba va ko’nikma mavjud. Xususan, bu borada Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi ahamiyatga molik. Xitoydagi innovatsion klasterlar asosan Pekindagi Sinxua hamda Shanxaydagi Fudon universitetlarida tashkil qilingan ilmiy-texnik parklar, ilmiy markazlar atrofida shakillantirilgan.^[4] Bizning mamlakatimizda ham bu borada qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirda Toshkent viloyatida ham ta’lim tizimini rivojlantirish, unda ta’lim boshqaruvini yanada takomillashtirish va uni amalda tadbiq etishga doir nazariy va amaliy qadamlar tashlangan. Shuningdek, ta’lim sifatini samaradorligini oshirish va raqobatdosh pedagog kadrlarni tayyorlash bo’yicha keng ko’lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektorining 2018-yil 16-noyabrdagi № 03-80 buyrug’iga asosan jismoniy madaniyat ta’lim yo’nalishi 2-kurs

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

talabalari Chirchiq shahar 24 va 25-umumta'lim mакtablarida ikki haftalik o'quv amaliyoti o'tashdi. Dastlabki o'quv amaliyotida guruhlardan saralangan talabalar pedagogik ta'lif innovatsion klasteri metodidan amalda foydalanib faoliyat yuritishdilar va shu bilan birga ushbu metod haqida o'z tushunchalarini boyitib olishdi. Shuningdek, Toshkent viloyati Xalq ta'limi boshqarmasida viloyat umumta'lim maktablari jismoniy tarbiya rahbarlari va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun "Jismoniy tarbiya sohasida pedagogik ta'lif innovatsion klasteri asoslari" nomli o'quv seminar treningi tashkil qildi.

Klaster tizimining joriy etilishi jismoniy tarbiya va sport sohasida ham sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumki yosh sportchilarni sportning o'yin turlariga tanlash va mo'ljallashda maktablarda jismoniy tarbiya darslari asos bo'lib xizmat qiladi. Buning natijasida o'quvchi-yoshlarga dars jarayonida yangicha uslublardan foydalanishni taqazo etadi.

Ma'lumki, sport iqtidori tashxisi hali o'z takomillashuvidan juda uzoqdadir. Ayni vaqtida, sport musobaqalarida raqobatning oshib borish tendensiyalarini tavsiylovchi, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish zamonaviy bosqichlari, ilm-fan oldiga kelgusida sportchilarni tanlash va ularning tayyorgarligini baholash uslubiyatlari samaradorligini oshirish zaruriyati to'g'risidagi savollarni keskin qo'ymoqda.

Zamonaviy talablar darajasidagi yuqori sport natijalariga erishish va shug'ullanish istagidagi har bir bola o'z faoliyatida maqsadga intilish, mehnatsevarlik, qat'iyat va matonatni muntazam tarbiyalash bilan uyg'unlashtirishi hamda jismoniy tarbiya darslarida sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallashiga bog'liqdir.

Jismoniy tarbiya darslarida klaster yondashuv asosida o'quvchi-yoshlarning jismoniy ko'rsatkichlarini rivojlantirish, sport turlarini samarali o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Ya'ni:

- 6) Yordamchi va maxsus mashqlari orqali o'quvchilarning jismoniy rivojlanganliklari va texnik-taktik tayyorgarliklari darajasiga ta'sirini aniqlash;
- 7) O'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiya darslarida maxsus sport turlariga yo'naltirishda harakatli o'yinlarni yosh xususiyatlariga moslashtirish va samaradorligini o'rganish;
- 8) Dars jarayonida o'quvchilarni klaster tizimidan foydalangan holda sport mashg'ulotlariga moyilligini oshirish;
- 9) Klaster tizimi orqali o'quvchi-yoshlarning fikrlash darajasini rivojlantirish hamda dars samaradorligini yaxshilash;
- 10) Ta'lif jarayonida klaster yondashuvi asosida o'quvchi-yoshlarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Klaster yondashuvi vositasida jismoniy tarbiya darslarida samaradorlikni oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari va professional ta'lim muassasalarida mavjud muammolarni bartaraf etishda keng foydalanish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib e'tirof etish mumkinki, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda klaster yondashuvini qaror toptirish va o'qitish texnologiyalarini joriy etish, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quvchi-yoshlardagi o'ziga nisbatan ishonch, ma'suliyatini his qilgan holda mustaqil harakat qilish ko'nikmalarini tarbiyalashda qulay ta'limiy muhitni yuzaga keltiradi. Shuningdek ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarga klaster usulini boshqa sport turlari bilan bog'lab foydalansak maqsadga erishishga sazovor bo'lamic. Ya'ni:

Ta'limda innovatsion klaster metodini ta'lim jarayoniga to'g'ri tadbiq qilinsa;

- Maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslariga bo'lgan qiziqishlari oshadi va darsning sifat samaradorligi yaxshilanadi;
- O'quvchilar orasida shahar, viloyat va Respublika miqyosida, o'tkazilayotgan musobaqalar g'oliblari va sovrindorlari ko'rsatkichlari ortadi;
- O'quvchilar orasidan iqtidorlariga qarab sport turlari bo'yicha seleksiya ishlari olib boriladi;
- Talabalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishlari uchun o'zlariga kerakli tajriba to'plab borishadi;
- Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro integrallashuv doirasi kengayadi, natijada o'quvchi-yoshlarning mustaqil ishlash, taxlil qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlanadi;

Xulosa o'rnila shuni alohida ta'kidlash lozimki, jamiyatimizning bugungi rivojlanish bosqichida pedagogik ta'lim innovatsion klasteri ta'limda ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni ta'minlaydigan, ilmiy-tadqiqot, ilmiy-metodik muassasalarda to'plangan tajriba va erishilgan ilmiy yutuqlarning ta'lim hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga yetib borishini samarali amalga oshiradigan yaqin kelajakdagi eng muhim tizim sifatida taqdim etilmoqda. Klaster tizimini ta'limning barcha sohalarida, xususan, jismoniy tarbiya darslarida ham joriy etilishi, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish,dars samaradorligini oshirish hamda o'quvchi-yoshlarga jismoniy tarbiyaning yangi bilim va ko'nikmalarini yetkazishda yetakchi omil bo'lib xizmat qilmoqda .

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" gi 213-son qarori //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.04.2021 y., 09/21/213/0330-ton.
10. С.А.Тоштемирова. "Кластерли йондашув асосида таълим сифатини ошириш" о'quv qo'llanma. – Т: „Ishonchli hamkor ” 2021.- 6 bet.
11. Ro'zimatov, Islomjon. "Bosqon uloqtiruvchilarda jismoniy sifatlarning rivojlanishini belgilab beruvchi metodlarni ahamiyati." Scientific-theoretical journal of International education research 1.3 (2023): 92-97.
12. Rozmatov, Islamjon, and Sanjarbek Gulomjonov. "The specific importance of motor methods of special training in short-distance running." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.3 (2023): 89-93.
13. Хожимуродова, Махлиёхон, and Фахриддин Иномов. "AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'MOVEMENT SKILLS AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 3.7 (2023): 252-257.
14. Nazirjonovich, Xatamov Zafarjon, and Inomov Faxriddin O'rmonjonovich. "Physical Education In Higher Educational Institutions Problems Of Formation Of Professional Skills On The Basis Of Science And Practice Ytegration In The Training Of Teaching Staff." Journal of Positive School Psychology (2023): 870-876.
15. Makhmudovich, Gofurov Abdushokir, Irmatov Shavkat Anvarovich, and Inomov Fahriddin O'rmonovich. "Development of physical activity of students based on physical education and sports classes." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 135-141.
16. O'rmonjonovich, Inomov Faxriddin. "Problems of Development of Physical Culture and Sports after Independence." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3.12 (2022): 58-62.